

ISSN: 2181-1040  
DOI: 10.26739/2181-1040  
tadqiqot.uz/renaissance



# JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL  
ASIAN RENAISSANCE**



**VOLUME 6 |  
ISSUE 1**

**2025**

# МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 1

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ  
ТОМ 6, НОМЕР 1

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE  
VOLUME 6, ISSUE 1



## Бош муҳаррир:

### МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор  
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

#### Бош муҳаррир ўринбосари:

##### ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент Мирзо  
Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

#### Бош муҳаррир ўринбосари:

##### ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),  
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

## МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

#### МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,  
профессор (Ўзбекистон)

#### ҲАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадиий  
академияси академиги, санъатшунослик фанлари  
доктори, профессор (Ўзбекистон)

#### МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари  
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

#### ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ISFT professori, siyosiy fanlar doktori (O'zbekiston)

#### ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси илмий  
ва инновация ишлари бўйича проректори,  
филология фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

#### КЛЭР РООСИЕН

Йел университети Славян тиллари ва адабиётлари  
кафедраси PhD доктори (АҚШ)

#### АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги СЕУ университети  
профессори (Испания)

#### ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги  
Ўзбекистон Миллий университети  
халқаро ишлар бўйича проректори,  
филология фанлари доктори,  
профессор (Ўзбекистон)

#### КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,  
тарих фанлари доктори (АҚШ)

#### ГАБИТОВ ТУРСУН ҲАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети  
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

#### ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Анджон давлат университети “Фалсафа” кафедраси  
муdiri, фалсафа фанлари доктори, профессор. (Ўзбекистон)

#### МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган муҳандислик-технология институти профессор,  
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

#### САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навий давлат педагогика институти  
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

#### ИНАКОВ КОМИЛЖОН ҚОДИРЖОНОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий  
университети доценти, педагогика фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

#### ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
доц.в.б., фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
(Ўзбекистон)

#### МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети доценти, социология  
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

#### ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
(Ўзбекистон)

#### РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн-саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

## Главный редактор:

**МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА**

доктор философских наук, профессор

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

## Заместитель главного редактора:

**ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА**

доктор философии (PhD), по философским наукам, доцент  
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

## Заместитель главного редактора:

**ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ**

доктор философских наук (PhD), Национальный  
университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

## ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

**МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ**

Ректор Национального университета Узбекистана,  
профессор (Узбекистан)

**ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ**

Академия наук Узбекистана,  
академик Академии художеств Узбекистана,  
доктор искусствоведения, профессор (Узбекистан)

**МАРИАННА КАМП РУТЦ**

профессор Центра Евразийских исследований  
Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

**ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ**

Профессор ISFT института,  
доктор политических наук (Узбекистан)

**ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ**

проректор по научным исследованиям и инновациям  
Международной исламской академии Узбекистана,  
доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

**КЛЭР РООСИЕН**

PhD доктор кафедры  
Славянских языков и литературы  
Йельского университета (США)

**АНТониО АЛОНСО МАРКОС**

профессор Университета  
CEU имени Сан Пабло (Испания)

**ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА**

проректор по международным связям  
Национального Университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека, доктор филологических наук,  
профессор (Узбекистан)

**КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ**

профессор Университета Хофстра,  
доктор исторических наук (США)

**ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ**

профессор кафедры религиоведения и культурологии  
Казахского Национального Университета имени Аль-Фараби,  
доктор философских наук (Казахстан)

**ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМУКЛОВНА**

заведующая кафедрой «Философия» Андижанского  
государственного университета, кандидат  
философских наук, профессор. (Узбекистан)

**МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ**

профессор Наманганского инженерно-технологического  
института, доктор философских наук (Узбекистан)

**САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА**

Навоийского государственного педагогического института,  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)

**ИНАКОВ КАМИЛЖОН КАДЫРЖАНОВИЧ**

доцент Национального Университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека, доктор философии (PhD)  
по педагогическим наукам (Узбекистан)

**ДЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА**

и.о. доцент Национального Университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека, доктор философии  
по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

**МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ**

доцент Наманганского государственного университета, доктора  
философии (PhD) по социологическим наукам (Узбекистан)

**ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ**

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо  
Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD)  
(Узбекистан)

**РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ**

докторант кафедры Философии и логики Национального  
Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

## Chief Editor:

**MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA**

Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor  
The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

## Deputy Chief Editor:

**YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA**

Doctor of Philosophy (PhD), in Philosophical Sciences,  
Docent of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

## Deputy Chief Editor:

**KHODZHIEV TUNIS NURKOSIMOVICH**

Doctor of Philosophy (PhD), National University  
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

## MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

**MADJIDOV INOM URUSHEVICH**

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

**KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH**

Academy of Sciences of Uzbekistan,  
Academician of the Academy of  
Arts of Uzbekistan, Doctor of  
Art History, Professor (Uzbekistan)

**MARIANNE KAMP RUTZ**

Professor of the Center for Eurasian Studies  
at Indiana University, Doctor of History (USA)

**DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH**

Professor of the ISFT Institute,  
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan).

**ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH**

Vice-Rector for Research and Innovation of the  
International Islamic Academy of Uzbekistan,  
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

**CLAIRE ROOSIEN**

Department of Slavic Languages and Literature  
of the Yale University, PhD (USA)

**ANTONIO ALONSO MARCOS**

Professor of the University of CEU  
named after San Pablo (Spain)

**SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA**

Vice-Rector for International Affairs of the National  
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,  
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

**KARIMOV ELYOR ERIKOVICH**

Professor of the Hofstra University,  
Doctor of Historical Sciences (USA)

**GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH**

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,  
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

**YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA**

the head of the "Philosophy" department of Andijan  
State University, DCs, professor. (Uzbekistan)

**MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH**

Professor of the Namangan Institute of Engineering  
and Technology, Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

**SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA**

the Nava'i State Pedagogical Institute, Doctor  
of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

**INAKOV KOMILJON KODIRJONOVICH**

Associate Professor of the National University  
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,  
Doctor of Philosophy (PhD) (Uzbekistan)

**JURAEVA NIGORA AVAZOVNA**

Associate Professor of the National University  
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

**MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH**

Associate Professor of Namangan State University,  
Doctor of Philosophy (PhD) on  
Sociological Sciences (Uzbekistan)

**SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH**

The National University of Uzbekistan named  
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

**RO'ZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD O'G'LI**

doctoral student of the National University of Uzbekistan  
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Khurshid Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Akmal Jumanazarov, Noibaxon Mamadalieva</b> AMIR TEMUR HARBIY SAN'ATIDA O'LCHASHLARNING QO'LLANILISHI.....	7
<b>2. Fayzixodjayeva Dilbar Irgashevna</b> SOHIBQIRON AMIR TEMUR QARORLARINING MANTIQUIY ASOSLANISHI.....	15
<b>3. Karimov Elyor Erikovich, Madayeva Shahnoza Amanullaevna</b> POSTJADIDCHILIK DAVRIDA O'ZBEK IDENTIKLIGINING SHAKLLANISHI.....	21
<b>4. Nilufar Tuychiyeva Maxsutjanovna</b> TASAVVUF ILMI RIVOJIDA ABU NASR SARROJNING O'RNI.....	30
<b>5. Джураева Нигора Авазовна</b> СИСТЕМНЫЙ АНАЛИЗ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПАРАДИГМЫ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА И КАЗАХСТАНА.....	40
<b>6. Yusupova Dildora Dilshatovna</b> YAQIN SHARQ MAMLAKATLARIDA ISLOMNING SIYOSIYLASHUVI VA UNING O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIGA TA'SIRI.....	49
<b>7. Madayeva Mu'tabarxon Amanullayevna</b> "SAB'AI SAYYOR" DOSTONIDA ARABCHA SO'ZLAR VA BADIY SAN'ATLARNING UYG'UNLIGI.....	55
<b>8. Xojiev Tunis Nurkosimovich</b> YANGI MODERNIZATSIYA KONSEPSIYALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI...	61
<b>9. Jo'rayev Anvar Muhammadiyevich</b> IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI.....	69
<b>10. Bultakov Begzod Abdurasulovich</b> INTERNETDA MILLIY KONTENTNING OMMALASHUVI: O'ZBEK MADANIYATI VA TILINING RAQAMLI MAKONDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	79
<b>11. Norboyev Javlon Akbarali o'g'li</b> IBN AL-ARABIYNING VAHDAT UL-VUJUD TA'LIMOTIDAGI PANTEISTIK QARASHLAR VA KLASSIK PANTEIZM.....	86

ISSN: 2181-1040


www.tadqiqot.uz

**МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ****ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ  
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE****Jo'rayev Anvar Muhammadiyevich**

«International school of finance technology and science» instituti

Gumanitar va tabiiy fanlar kafedrası dotsenti, f.f.n.

E-mail: adjurayev@gmail.com

**IJTIMOY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI** <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15126841>**ANNOTATSIYA**

Maqola ijtimoiy bilish darajalarining mezonlarini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda ijtimoiy jarayonlar va jamiyatdagi o'zaro ta'sirlarni o'rganishda muhim jihatni tashkil etadi. Bilim darajalarini tasniflashning turli yondashuvlari ko'rib chiqilgan, jumladan, ijtimoiy haqiqatni anglashdagi kognitiv, emotsional va madaniy jihatlar. Ijtimoiy kontekstni anglashning ahamiyati, tarixiy va madaniy omillarning ta'siri, shuningdek, ijtimoiy intuitsiyaning ijtimoiy dunyo haqidagi tasavvurlarni shakllantirishdagi roliga alohida e'tibor qaratilgan. Muallif ijtimoiy bilim jarayonlarini tasvirlaydigan turli nazariyalar va modellarga tahlil beradi hamda ushbu me'yorlarning zamonaviy jamiyatda samarali o'zaro ta'sir uchun ahamiyatini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy bilish, bilish darajalari, ijtimoiy jarayonlar, jamiyatda o'zaro ta'sir, kognitiv jihatlar, emotsional jihatlar, madaniy jihatlar, ijtimoiy haqiqat, ijtimoiy kontekst, tarixiy omillar, madaniy omillar, ijtimoiy intuitsiya, ijtimoiy bilish nazariyalari, ijtimoiy bilish modellari.

**Джураев Анвар Мухаммадиевич**

Институт «International School of Finance, Technology and Science»

Доцент, к.ф.н. кафедра «Гуманитарных и естественных наук»

E-mail: adjurayev@gmail.com

**КРИТЕРИИ УРОВНЕЙ СОЦИАЛЬНОГО ПОЗНАНИЯ****АННОТАЦИЯ**

Статья посвящена анализу критериев уровней социального познания, представляющих собой важный аспект в изучении социальных процессов и взаимодействий в обществе. Рассматриваются различные подходы к классификации уровней познания, включая когнитивные, эмоциональные и культурные аспекты восприятия социальной реальности. Особое внимание уделяется важности осознания социального контекста, влияния исторических и культурных факторов, а также роли социальной интуиции в формировании представлений о социальном мире. Автор исследует различные теории и модели, описывающие процессы социального познания, и подчеркивает значимость этих критериев для эффективного взаимодействия в современном обществе.

**Ключевые слова:** социальное познание, уровни познания, социальные процессы, взаимодействие в обществе, когнитивные аспекты, эмоциональные аспекты, культурные

аспекты, социальная реальность, социальный контекст, исторические факторы, культурные факторы, социальная интуиция, теории социального познания, модели социального познания.

**Jurayev Anvar Muhammadiyevich**

International School of Finance, Technology and Science" Institute

Department of Humanities and Natural Sciences

Associate Professor, PhD

E-mail: adjurayev@gmail.com

## CRITERIA OF SOCIAL KNOWLEDGE LEVELS

### ABSTRACT

The article is dedicated to the analysis of the criteria for levels of social cognition, which represent an important aspect in the study of social processes and interactions within society. Various approaches to classifying levels of cognition are discussed, including cognitive, emotional, and cultural aspects of perceiving social reality. Special attention is given to the importance of recognizing the social context, the influence of historical and cultural factors, as well as the role of social intuition in shaping perceptions of the social world. The author explores different theories and models that describe the processes of social cognition and emphasizes the significance of these criteria for effective interaction in contemporary society.

**Keywords:** social cognition, levels of cognition, social processes, social interaction, cognitive aspects, emotional aspects, cultural aspects, social reality, social context, historical factors, cultural factors, social intuition, theories of social cognition, models of social cognition.

**Kirish va mavzuning dolzarbligi.** Ilmiy bilish doirasiga, shu jumladan ijtimoiy jarayonlarni bilishning empirik va nazariy jihatlarining o‘zaro munosabatiga taalluqli masalalarga ular o‘rtasidagi chegarani, ya‘ni ularni bir-birlaridan farqlash mezonlarini aniqlash haqidagi masala ham kiradi. Mavjud ilmiy adabiyotlarda ushbu masalada har xil nuqtayi nazarlar bildirilgan. Ba‘zi mualliflar bilish darajalari bilimlarni hosil qilish usullari bo‘yicha farqlanishini ta’kidlaydilar. Boshqalari ularda sxemashtirish va ideallashtirishning turli usullarini ko‘radilar. Bilishning ikki darajasini ajratish va ularning o‘zaro munosabati muammosiga doir nuqtayi nazarlarning ko‘pligi bu muammoning dolzarbligi va murakkabligidan dalolat beradi. Buning ustiga, fan rivojlanishi bilan empirik va nazariy darajalar o‘rtasidagi chegaralar doimiy ravishda o‘zgarib turadi, chunki ushbu chegaralar nisbiy bo‘lib, ko‘p jihatdan bilish jarayonining dialektik rivojlanishiga bog‘liq. Bilish jarayonining o‘zi rivojlangani sayin empirik jihat nazariy jihatga o‘tadi, fanning bir bosqichida nazariy deb hisoblangan masala boshqa, yuqoriroq bosqichida empirik vositalar yordamida bilsa bo‘ladigan muammo hisoblanadi [1, 100-b].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tadqiqotchilar, ayniqsa, tabiatshunoslar orasida aynan amaliy ahamiyatga molik ilmiy bilish yetarli darajada yuqori nazariy maqomga egalik ko‘rsatkichi bo‘ladi degan fikr chuqur ildiz otgan [2]. Garchi bunday baho nazariy bilimni yanada takomillashtirishni taqozo etsa ham, biroq uning yo‘nalishlari va maqsadlarini talqin etishning nazariy mohiyatini tushunishning boshqa turiga tayanuvchi baholardan kelib chiqadigan talqinlardan keskin farq qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada quyidagi metodlardan foydalanilgan: tizimli tahlil, analiz va sintez. Nazariy bilim mohiyatini tushunishning mazkur turining asosini uning empirik, tajribaviy-eksperimental bilimga bo‘lgan munosabati tashkil qiladi. Ilmiy bilimning nazariy maqomini aniqlash jarayonida ushbu munosabatlarning namoyon bo‘lish shakllari va jihatlari ko‘p va xilma-xildir. «Empirik bilimning mohiyatini ko‘rib chiqish va uni nazariy jihat bilan qiyoslash (jumladan, o‘zaro qarama-qarshi qo‘yish) gnoseologiya, metodologiya va fan mantig‘ining ko‘plab muhim masalalari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularga, masalan, ilmiy bilim hosil qilish, gipotezalarni tekshirish, ilmiy nazariyalarning tuzilishi, ideallashtirish, tiplashtirish, tushuntirishlarning tabiatini aniqlash masalalari kiradi»[3, 49-b].

**Tahlil va natijalar.** Faylasuflar tomonidan empirik va nazariy darajalar munosabatini ilmiy bilishning ikki xil tavsifi dixotomiyasidagi asosiy kalit sifatida mantiqiy-gnoseologik va metodologik anglashlari empirik va nazariy darajalar namoyon boʻladigan shakllarning koʻpligini aniqlashga imkon berdi. Bular ilmiy bilish darajalari va tafakkur darajalari, bilish faoliyati darajalari yoki fanning tarixiy bosqichlaridir. Ilmiy bilishning empirik va nazariy darajalari oʻrtasidagi munosabatlarining har bir shakli uchun oʻz mezonlari ishlab chiqilgan[1]. Bu mezonlardan barcha bilimlar majmuini bilishning hodisadan mohiyatga tomon harakatlanishidagi ichki mexanizmlarni oʻrganishning zaruriy bosqichi sifatida empirik va nazariy tarkibiy qismlarga ajratish, bilimning tadqiq etilayotgan tuzilishidagi ayrim elementlarni ifodalash va darajalash uchun foydalaniladi.

Falsafaga oid adabiyotlarda mezonlar sifatida quyidagilar keltiriladi:

- 1) bilimda aks etadigan aloqalarning turlari;
- 2) ob'ektni kuzatish mumkinligi;
- 3) oʻrganilayotgan ob'ektning xususiyati;
- 4) oʻrganilayotgan ob'ektning tuzilishi, tarkibi;
- 5) sezgi va tafakkurning oʻzaro munosabatiga xos xususiyatlar;
- 6) bilimning haqiqatligini aniqlash usuli;
- 7) bilim olish metodi va boshqalar.

Ilmiy bilishning empirik va nazariy darajalarini bir-biridan ajratish asoslari va mezonlari shunchalik koʻp boʻlgan sharoitda ularni aniqlash va taʼriflash jarayonida qiyinchiliklar mavjudligidan hayratlanmasa ham boʻladi.

Zamonaviy falsafada, ayniqsa postpozitivizm taʼlimotiga asoslangan metodologiyada empirik va nazariy darajalarni bilimning bir-birini istisno etuvchi qarama-qarshi turlari deb hisoblash qabul qilingan[4]. Biroq bilimning ushbu ikki turi oʻrtasidagi farqni aniqlash mezonini tanlash haqida soʻz ketganida ham kelishmovchiliklar yuzaga keladi. Masalan, empirik va nazariy darajalar oʻrtasidagi farq bilish faoliyatining ikki yoʻnalishi bilan bogʻliq, degan fikrlarni ham uchratish mumkin. Empirik va nazariy darajalarni farqlash mezonlari bilimning tegishli turlari tayanadigan bazisdagi farqlarda koʻrinadi: empirik bilim bevosita tajribaga, nazariy bilim esa – tafakkur vositalariga tayanadi.

Bilishning empirik va nazariy darajalarini farqlash asoslarini va mezonlarini aniqlashda empirik bilimning tuzilishi uning ekstensiv ekanligi, hamda maʼlumotlar va ularning sistemalari oʻrtasida ierarxik aloqa yoʻqligi bilan izohladi.

Shoʻrolar davri falsafasida ilmiy bilishda empirik va nazariy darajalar oʻzaro munosabatining ayrim jihatlari talqin qilingan. Masalan, baʼzi ilmiy izlanishlarda ilmiy nazariya tarkibidagi nazariy va empirik atamalarning oʻzaro aloqalari va farqlarining mantiqiy-metodologik asoslarini tadqiq etishga formal-mantiqiy yondashuv qoʻllanilgan. Mualliflar asosiy (bazisli) tilni tashkil qiladigan va maʼnolari tabiiy anglashiladigan atamalarni empirik atamalar deb, asosiy tilga mansub boʻlmagan barcha qolgan atamalarni esa nazariy atamalar deb hisoblaydilar[5, 34-b].

Shu asosda quyidagilarni ajratish mumkin: 1) nazariy atamalarga ega boʻlmagan gaplar; 2) nazariy atamalarga ega boʻlgan gaplar.

Taʼkidlash lozimki, faktlarga oid gaplarni nomologik hukmlardan ajratish gaplarni ular qaysi atamalarda ifodalanganligiga qarab ajratishga mos keladi. Nazariy atamalarga asoslangan kuzatuv, eksperiment yoki faktlarga oid gaplar, shu bilan birga, nazariy atamalarsiz ifodalangan nomologik hukmlar ham boʻlishi mumkin. Biroq, garchi empirik ob'ektlar bilan amalga oshiriladigan harakatlar soʻzlar bilan amalga oshiriladigan harakatlar boʻlmasa-da, biroq ular muayyan jihatdan aniq qayd etilgan va ob'ektlar bilan boʻladigan harakatlarga mos kelishi mumkin.

Bu mavzuga doir ilmiy ishlarda nazariy va empirik darajalarning nisbati muammosini formal mantiq nuqtai nazaridan tahlil qilish faqat mantiqiy pozitivizmga[4] xos boʻlmasdan, balki ilmiy dialektik bilish nazariyasiga ham toʻla mos kelishi yaxshi koʻrsatilgan[6].

Bilimning empirik va nazariy darajalarini «empirik talqin» tushunchasi yordamida formal-mantiqiy vositalar bilan ajratishning boshqa dalillari ham boʻlishi mumkin.

Odatda, kuzatish atamalari bevosita empirik talqinga egaligi, nazariy atamalar esa bunday talqinga ega emasligi eʼtirof etiladi. Bizningcha esa, ular kuzatuv atamalari bilan bogʻliq darajadagina empirik talqinga egadirlar.

Aytish joizki, «kuzatish» yoki «eksperiment» atamalariga alohida-alohida yondashish to'g'ri emas. Chunki qanday atamalar mavjudligini hisobga olishgina emas, balki hukmlar ifodalanadigan butun mantiqiy tizimni inobatga olish ham muhim. Ko'pincha nazariy atamalarga tushadigan butun og'irlikni mantiqiy vositalarga ko'chirishimiz mumkin bo'ladi. Ba'zi bir nazariy atamalarning kvantorlari juda murakkab tarzda chatishib ketganligi tufayli ularni «kuzatish» yoki «eksperiment» atamalari orqali ifodalay olmaymiz. Masalaning bu jihati ko'pincha metodologiyada inobatga olinmaydi. Ko'p hollarda kuzatish atamalari orqali nafaqat kuzatish yoki eksperimentning dastlabki atamalari, balki ular orqali aniq ta'riflanadigan barcha atamalar nazarda tutiladi. Bizningcha, bu fikr shubhali. Chunki hal qiluvchi ibora (formula) juda murakkab shaklda bo'lishi mumkin. Agar mantiq yetarlicha boy bo'lsa, butun og'irlik mantiqning o'ziga tushishi mumkin.

Ilmiy tushunchalar muhokama qilinganida odatda ularning biz kundalik hayotimizda ishlatadigan tushunchalaridan keskin farq qilishi ta'kidlanadi. Shubhasiz, bu farqlar juda jiddiy, biroq maxsus fanlarning rivojlanish tarixini kuzatadigan bo'lsak, ularning genetik manbai kundalik tajriba va tabiiy til ekanligi ma'lum bo'ladi. Nisbatan keng falsafiy qarashga ega bo'lgan olimlar bunday aloqani inkor etmaganlar. Shu o'rinda A. Eynshteynning qarashlari qiziqarlidir: «Butun fan kundalik tafakkurni takomillashtirishdan boshqa narsa emas»[7, 200-b].

Lui de Brol tasavvurlarimizni kundalik hayotiy tajribamizdan ilhomlanib hosil qilishimizni ta'kidlagan edi. Biz odatda muayyan tushunchalarni hosil qilamiz, so'ngra soddalashtirish va mavhumlashtirish orqali ayrim soddalar, aniq tushunchalarni o'ylab topamiz, nihoyat ulardan hodisalarni izohlashda foydalanishga urinamiz[8, 186-b].

Bizningcha, ilmiy bilishning empirik va nazariy darajalari o'rtasidagi muhim farqlar ob'ekt, faoliyat usullari, uning natijalarini qayta ishlash va ularni tushunchalar shaklida ifodalash usullarida eng aniq namoyon bo'ladi. Uning doirasida empirik va nazariy darajalarni qiyoslash bilim rivojlanishining manbai bo'lmish ularning birligi va ziddiyatlariga xos bo'lgan xususiyatlarda ko'rish imkonini beradi. Masalan, empirik faoliyat – real ob'ektga, nazariy faoliyat esa ideal ob'ektga qaratilgan bo'ladi. Empirik bilish amaliyot bilan bevosita aloqasini saqlab qoladi, nazariy bilish esa u bilan bilvosita bog'liq. Nazariy darajada yuksak ideallashtirish, formallashtirish, turli xil mavhumlashtirish turlarini ajratish mavjud bo'lib, ular empirik tafakkurga xos emas.

Empirik va nazariy darajalarning asosiy farqlari ob'ektda ham namoyon bo'ladi, ya'ni empirik va nazariy darajalarni tahlil qilishda ob'ektning xususiyatini inobatga olish zarur. Bu hol bilish darajalarining umumiy va muhim jihatlarini aniqlashtirishgagina emas, balki ular asosida turli fanlarda empirik va nazariy darajalarning o'ziga xos xususiyatlarini oqilona tushuntirishga ham imkon beradi. Ilmiy bilim elementlarini tahlil qilish metodologiyasiga asos qilib olingan bunday o'zaro ta'sir bilish nazariyasining rivojlanib borayotgan kategoriyalari sifatida empirik va nazariy darajalarga muayyan qarashni shakllantiradi. Ushbu holda empirik va nazariy darajalar munosabatlari ob'ektning xususiyati, ya'ni fanlarni empirik va nazariy fanlarga ajratish bilan cheklanadi. Bu hol ilmiy bilishning ushbu ikki darajasi o'rtasidagi chegaraning o'zgaruvchanligi va nisbiyligidan dalolat beradi.

Empirik va nazariy darajalarga tafakkur darajalari sifatida qaraydigan metodologik yo'nalish ham mavjud bo'lib, unda empirik va nazariy darajalar o'rtasidagi chegaralarning mutlaqligi birinchi o'ringa chiqadi. Bu konsepsiya bilish darajalarini hosil bo'ladigan tushunchalarning mantiqiy tuzilishidagi farqlarga asoslanadi.

Yuqorida keltirilgan konsepsiyalarni o'zaro to'ldirish, birlashtirish zarur, chunki ikkinchi konsepsiya u yoki bu aniq fanning bilish ob'ektiga xos bo'lgan xususiyat tafakkurning empirik va nazariy darajalari mazmuniga qanday ta'sir etishi haqidagi masalani ko'rmaydi, aksincha, bilishning mazkur darajalari nisbiyligini inobatga olmaydi. Ushbu konsepsiyalarning sintezi «empirik» va «nazariy» bilish kategoriyalarini rivojlanishda ko'rish imkonini beradi va bu bilan ularning bilish jarayonidagi metodologik ahamiyatini oshiradi.

Hozirgi vaqtda nazariya haqidagi ta'limotlar keng rivoj topmoqda. Masalan, endilikda predmet va hodisalarni majmualar (sistemalar) nazariyasidan foydalanib tahlil qilish lozimligi ta'kidlanmoqda. «Majmualar nazariyasiga to'liq asoslanuvchi biologiya, ximiya, oliy matematika, kibernetika, kosmologiya, kosmonavtika, rabototexnika kabi ilm-fan tarmoqlari mavjud. Majmualar

nazariyasidan dunyoni anglash usuli sifatida foydalanuvchi fanlar kundan-kunga ortib bormoqda. Shu kunga kelib, muayyan fanning taraqqiy etganligi va har bir olimning yetuklik darajasi ularning majmualar nazariyasidan naqadar unumli foydalana olishi bilan belgilanmoqda»[9, 28].

Bizning fikrimizcha, empirik bilim shunday bilimki, uni tekshirish va aniqlash chogʻida kuzatish va eksperiment maʼlumotlaridan bevosita foydalanish, binobarin, bunday bilimning mazmunini kuzatiladigan narsalar va munosabatlarga taalluqli atamalar orqali bevosita ifodalash mumkin boʻladi. Nazariy bilim esa – shunday bilimki, uning haqiqatligini tekshirishni kuzatiladigan narsalar va munosabatlarga doir atamalar orqali bevosita ifodalab boʻlmaydi. Bunday bilimning haqiqiylikini bevosita kuzatish va eksperiment yordamida tekshirib boʻlmaydi, binobarin uning mazmuni bevosita hissiy bilim aniqlay olmaydi.

Ilmiy tushunchalar bevosita tajriba orqali olinishi mumkin boʻlmagan mazmunga ega boʻladi. Ularda kuzatib boʻlmaydigan, idrok etilmaydigan belgilar boʻladi. Ular obʼektning mohiyatini ifodalaydi. Ilmiy tushunchalarda obʼektning ichki mohiyati, xossalari, tuzilishiga xos ichki aloqalar oʻz ifodasini topadi. Biroq ayni vaqtda ular ushbu tuzilishga ega boʻlgan obʼektlarning baʼzi bir empirik xususiyatlarini ham aks ettiradi. Empirik va nazariy bilimlarni «kuzatish mumkinligi» belgisi boʻyicha ajratish yetarli emas. Bu avvalo kuzatish belgisining empirik darajaga nisbatan qoʻllanilishi bilan bogʻliq. Xoʻsh, bu holda empirik tadqiqot yoki empirik daraja hali nazariy jihatdan yetarli tushuntirilmagan va tahlil qilinmagan, biroq, albatta, tabiatshunoslik fanlarida empirik tadqiq etiladigan va kuzatish yoki laboratoriya eksperimenti yordamida qayd etiladigan obʼektlarni ifodalashga imkon beradigan atamalar ifodalanadigan maʼnodagi «kuzatiladigan» boʻlmaydi. Masalan, ijtimoiy-gumanitar bilimlar oʻzining tavsiflovchi, empirik darajasida doimo kundalik ong qayd etgan ijtimoiy hodisalar bilan ish koʻradi. Ushbu maʼnoda bu hodisalar aslo «nazariy olam»ga kirmaydi, biroq ularga nisbatan «kuzatish mumkinligi» atamasini qoʻllab boʻlmaydi.

Yuqorida keltirilgan misoldan koʻrinib turganidek, tadqiqotchilar bilimning empirik va nazariy darajalari chegarasini hamda ularni farqlash mezonlarini ushbu muammoning bir yoki bir qancha jihatlarini ajratib koʻrsatish orqali aniqlashga harakat qilmoqdalar. Bu esa ular oʻz tadqiqotlarini muammoni toʻliq har tomonlama qamrab olishning qiyinligi sababli bila turib, cheklayotganliklaridan dalolat beradi. Ammo bu mazkur muammoni bunday vositalar bilan hal qilishning iloji yoʻqligi haqidagi fikrga olib keladi. Aftidan, shakllangan yondashuvlarga qarama-qarshi ravishda tadqiqotning umumiy yoʻnalishi nazariy va empirik daraja muammosini bilish faoliyatining xususiyati bilan bogʻliq muammo sifatida (gnoseologik, kategorial-mazmuniy, metodologik va mantiqqa xos har xil jihatlarni qamrab oluvchi) kompleks oʻrganishdan iborat boʻlishi kerak.

Ilmiy bilishning empirik darajasida, albatta, fikrlash faoliyati ham amalga oshiriladi. Uning yordamida empirik maʼlumotlar umumlashtiriladi, obʼektiv voqelikning har qanday xususiyatlari emas, balki tadqiqot maqsadidan kelib chiqib tanlab olingan xususiyatlari aks ettiriladi. Aks ettirish esa koʻzgudagidek, yaʼni izomorf tarzda boʻlmaydi. Aks ettirish chogʻida ushbu xususiyatlar fikran tartibga solinadi, tasniflanadi, alohida belgilari va qoidalari boʻyicha umumlashtiriladi va tavsiflanadi. Bunda ilmiy bilishning analiz va sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash kabi usullaridan keng foydalaniladi. Taʼkidlash zarurki, eksperiment darajasidayoq nazariy tafakkur amal qiladi, zero tadqiqotchi eksperiment oʻtkazayotganida muayyan nazariy bilimlar, gʻoyalarga tayanadi, ulardan ilgari surayotgan gipotezasining ishonchligini tekshirishda foydalanadi.

Biroq, yuqorida aytilganlar bilishning empirik darajasida fikriy faoliyatning mavjudligi miqdor va sifat jihatidan bilishning nazariy darajasidagi bilish jarayonlaridagi fikrlash faoliyati va qayta ishlashning mavjudligiga teng, degan maʼnoni bildirmaydi.

Aftidan, empirik va nazariy darajalar oʻrtasidagi farq birining tadqiqot obʼektlari bilan bevosita aloqada ekanligi, boshqasining esa empirik faktlarni umumlashtirish, chuqurlashtirish, izohlashdan iboratligi va hodisalarga doir hissiy maʼlumotlar majmuidan iborat emasligidagina emas. Bu farq ular oʻrtasida oʻrganilayotgan obʼektni tafakkur orqali oʻzlashtirishning oʻziga xos xususiyatida ham mavjudligidadir[10].

Empirik va nazariy darajalar obʼekt sohasiga kirib borish darajasi bilan ham oʻzaro farq qiladi. Buni sotsiologiya misolida tushuntirib beramiz.

Sotsiologiyada bilishning empirik darajasi – o‘rganilayotgan voqelikni keng «tavsiflashga» ongli ravishda yo‘naltirilgan umumiylik darajasidir. Ushbu «keng» qamrab olish doirasida biz voqelikni uning ko‘rinishidagi butun xilma-xillikda bilib olamiz. Umumlashtirishning empirik darajasida ijtimoiy faktlar, harakatlar, voqealar va shu kabilar bir-biridan ajralgan holda emas, balki maxsus o‘zaro aloqa va bog‘liqliklar nuqtai nazaridan baholanadi. Bundan esa ijtimoiy jarayonlar va hodisalarning bir-biri bilan bog‘liqligidan iborat umumiy tizimda mavjud bo‘lgan holatlarni aniqlash maqsadi ko‘zlanadi.

Jamiyat rivojlanish qonunlarining gnoseologik vazifalari bizni ayrim hodisalarni o‘rganishga, ularda ham umumiy, takrorlanuvchi jihatlarni, ham yakka juz‘iy elementlarni aniqlashga undaydi. Chunki jamiyat haqidagi yoki uning qandaydir bir qismi, sohasi haqidagi fan deb atalish huquqiga ega bo‘lish uchun sotsiologiya ijtimoiy faoliyatdagi takrorlanuvchi elementlarni aniqlashi, boshqacha aytganda, ijtimoiy jarayonlarning rivojlanish qonunlarini kashf qilishi kerak.

Jamiyat hayotining «alohida bir hodisalari o‘zining xususiyatlari jihatidan takrorlanmasdir, biroq bu takrorlanmaslik ularni qandaydir alohida, ajralgan faktlarga aylantirmaydi. Ular muhim, takrorlanuvchi xossalarga ega bo‘lgan hodisalar zanjirining halqalaridir»[11, 9-b].

Bilish, shu jumladan ijtimoiy bilishning ikki darajasi sifatida empirik va nazariy darajalar chegarasini aniqlaganda, empirik bilish darajasi:

birinchidan, voqelikka aylangan yoki aylanayotgan; ikkinchidan, ba‘zi bir aniq makon va zamon ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan; uchinchidan, esa, alohida va takrorlanmas ob‘ektlarni aks ettirishi ma‘lum bo‘ladi.

Nazarimizda, ijtimoiy bilish jarayonida empirik jihatdan o‘rganiladigan ob‘ektlar o‘zining diskretligiga, vaqti, makoni, yakka tartibdagi takrorlanmasligiga ham, muayyan takrorlanish, muntazamlik, umumiy jihatlariga ham ega.

Nazariy umumlashtirish, aslida, ob‘ektivlashgan bilishdir. Uning yuzaga kelishi va rivojlanishi – bilish sub‘ektining ongidagi tushunchalar orqali aks ettirish sifatida – tasodiflardan, bevositalikning cheklanganligidan «tozalanadi» va doimo o‘zining ob‘ektiv mazmuniga ega bo‘ladi.

Bilishning ushbu darajasiga xos bo‘lgan xususiyat – uning «bevosita makon va vaqt xususiyatlaridan mavhumlashishi, ulardagi alohida hodisalarning aniq va takrorlanmas makon va vaqt ko‘rsatkichlarini emas, balki ko‘plab predmet va hodisalar uchun muhim bo‘lgan umumiy va qonuniy jihatlarini qayd etishidir»[11, 17-b].

Binobarin, u nafaqat ma‘lumotlar, mavjud holatlarni aks ettiradi, balki o‘zida bashorat qilish elementlariga ham ega bo‘lib, hozircha voqe bo‘lmagan, ammo kelajakda bo‘ladigan vaziyatlar haqidagi gipotezani ilgari suradi. Shu bois, nazariy bilimlar umumlashtirilgan holda keltirib chiqarilgan makon va zamonga bog‘liq bo‘lmagan holda ularda voqelikning asosiy jihatlari hamda ushbu makon va vaqtning zaruriy aloqasi va bog‘liqligini aks ettirishi hal qiluvchi ahamiyatga ega emas.

Shuning uchun ham, empirik bilishning tabiati va chegaralari haqidagi, yangi qaysi bilim empirik bilim deb hisoblanishi kerag-u, qaysilari bunday deb hisoblanmasligi zarurligi masalasini ko‘rib chiqish muhim deb hisoblaymiz. Shuningdek, empirik bilimni aniqlash mezonlari haqidagi masalaga ham aniqlik kiritish zarur. Falsafiy adabiyotlarda ushbu masalalar borasida hozirgacha umumiy to‘xtamga kelinmagan. Masalan, B. Boboev kuzatish, eksperimentlar va o‘zgartirishlar natijalarni qayd etadigan bilimni empirik bilim deb atash mumkin, deb hisoblaydi. Uning fikricha, tilni ikkita, ya‘ni empirik va nazariy darajaga bo‘lish qabul qilingan bo‘lib, birinchisida kuzatish, eksperiment va o‘zgarishlarning natijalari yoziladi[12, 27-b].

Empirik bilim chegaralari ancha keng bo‘lib, empirik tadqiqot ob‘ektiv voqelik bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi, hodisalar va ular o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi, nazariy tadqiqot esa empirik bilish ma‘lumotlariga tayanib, o‘rganilayotgan voqelikning muhim tomonlari va qonuniy aloqalarini ochib beradi[13, 488-b].

Empirik bilim nafaqat tajribalar o‘tkazishni, balki tajriba ma‘lumotlarini mantiqiy tekshirish va umumlashtirishni ham qamrab oladi. Mantiqiy tekshirish va umumlashtirish natijasida esa empirik qonunlar kashf etiladi. Empirik tadqiqot faqat tajriba ma‘lumotlarini olishdan iborat deb tushunish muayyan muammolarni yuzaga keltiradi.

Empirik fanni qandaydir «sof faktlarni» topish va aql bilan ishlov berishdangina iborat deb bilish mumkin emas... Empirik fan bosqichida bevosita empirik tadqiqot o'tkazish, faol kuzatuv va eksperimentni tashkil qilish doimo va har yerda konseptual mulohazalar bilan yo'naltiriladi... Uni neytral empirik ma'lumotlarni izlash sifatida tasavvur qilib bo'lmaydi. U, aslida, kuzatish va eksperimentda predmet va hodisalarning empirik bilish orqali aniqlanadigan belgilari hamda munosabatlarini qayd etishga qaratilgan faol, maqsadga yo'nalgan faoliyatdir [13, 488-b]. Ushbu belgilar va munosabatlardan kelib chiqadigan konseptual mulohazalardan empirik tadqiqotlarning asosida yotuvchi ilmiy farazlar – deb taxmin qilinadi.

Empirik bilimning tabiati va chegaralarini chuqurroq tushunib olish uchun tajribaviy va empirik bilim o'rtasida qanday umumiylik va xususiylik munosabati bor, degan savolga javob berish zarur. «Empiriya» yunoncha so'z bo'lib, «tajriba» ma'nosini bildirsa-da [14, 312-b], ushbu tushunchalar o'rtasida muayyan farq mavjud. Falsafiy bilimning rivojlanishi bilan «empirik» atamasining ma'nosi kengayib, «tajribaviy» atamasining doirasidan tashqariga chiqib ketdi. Bilimni, xususan empirik bilimni har xil usullar bilan olish mumkin. Agar bilim tajriba natijalarini tavsiflash yoki, umuman, tajribani umumlashtirishning oqibati sifatida keltirib chiqarilsa, bunday bilim tajribaviy yoki tajribaga asoslangan bilim deb ataladi. Lekin, agar bilim tajribadan mustaqil tarzda, muayyan nazariya yoki tegishli nazariy hisob-kitoblar asosida keltirib chiqarilsa, u holda bunday bilim nazariy bilim deb ataladi.

Ushbu holda empirik va empirik bo'lmagan bilim o'rtasidagi farq mulohaza yuritish usuliga bog'liq bo'ladi.

Odatda tajribaviy bilim empirik bilim bo'ladi, ammo aksincha emas. Empirik bilim tajribaviy ham, uning doirasiga kirmaydigan ham bo'lishi mumkin. Empirik bilim to'lig'icha tajribaviy emas, zero u tajribaga kirmaydigan elementlarni ham o'z ichiga oladi. Buning aksini aytish yanglishuv bo'ladi.

Bizningcha, ijtimoiy bilishning ziddiyatli xususiyati quyidagi ta'rifda ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi. Unga ko'ra nazariya deb, ob'ektlarning muayyan majmui haqidagi o'zaro bog'liq hukmlar va dalillar tizimi bo'lgan, ushbu predmet sohasiga kiradigan hodisalarni tushuntirish va oldindan aytish usullarini birlashtiruvchi ishonchli ilmiy bilim shakliga aytiladi [1].

Shu ma'noda, nazariya empirik bilimga qarama-qarshi qo'yiladi va empirik bilimdan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

birinchidan, unda mavjud bo'lgan ilmiy bilimning mavjud ilmiy usullarga muvofiq olinishi bilan ta'minlanadigan hamda uning ichki ziddiyatsizligida ifodalanadigan ishonchligi (uning haqiqatligini tekshirish mumkinligi va hokazo);

ikkinchidan, unda tadqiq etilayotgan hodisalarning umumlashtirilgan tarzda tavsiflanishi, nafaqat muayyan doiradagi hodisalarni tavsiflaydigan, balki ularni tushuntiradigan umumiy qonunlarni shakllantirishi, yangi, hali o'rganilmagan faktlarni oldindan aytish imkoniga egaligi;

uchinchidan, o'z tarkibida ulardan xulosalash, isbotlash orqali olingan ko'plab dastlabki hukmlar bo'lishi, buning ustiga isbotlash jarayonining o'zi ushbu nazariya yoki muayyan toifaga kiruvchi nazariyalar uchun ifodalanadigan maxsus mantiq qonuniyatlariga bo'ysunishi [15-b].

Bizningcha, ilmiy bilish darajalarini o'zaro farqlash asoslari va mezonlari haqidagi masalani o'rganish va tadqiq etish uchun kundalik tajriba bilan ilmiy bilim o'rtasida chegara mavjudligi va ularning o'zaro munosabatlari haqidagi masalaga murojaat etish lozim. O'ylaymizki, ushbu tahlilimiz natijalarini bilishning empirik va nazariy darajalarining o'zaro munosabati muammosiga tatbiq etish ularni ajratish mezonlari haqidagi masalaning muhim jihatlari aniqlashga imkon beradi hamda ularni farqlash asoslari va mezonlari haqida so'z yuritish qanchalik to'g'ri ekanligiga muayyan aniqlik kiritadi.

Kundalik tajribani ilmiy bilim bilan qiyoslaydigan bo'lsak, ular o'rtasida katta farq borligini ko'rishimiz mumkin. Ilmiy bilim vakili o'z fikrlarini tushunchalar va kategoriyalar orqali konseptual-nazariy shaklda aniq va asosli ifodalashga harakat qiladi. Kundalik tajribadan esa amalda anglanmagan holda foydalanamiz va uni qo'llash oldindan qandaydir artikulyatsiyani talab etmaydi. Ular voqelikni o'zlashtirish usullari bo'yicha ham bir-birdan keskin farq qiladi. Dunyo ilk bor inson oldida kundalik tajribada namoyon bo'ladi va aynan shu tajriba keyinchalik bilimning ancha

uyushgan va ixtisoslashgan daraja va shakllarini o'zlashtirish uchun asos bo'ladi.

Prof. Z. Davronov tajribani quyidagicha ta'riflaydi: «Tajriba bu – narsa va hodisaning mohiyatini ochish sharoitida qaytadan hosil qilish va kuzatishga imkon beradigan jarayondir»[16, 137-b].

Kundalik tajriba bilishning uchta asosiy kichik tizimini o'z ichiga oladi: 1) hissiy perseptiv tajriba, 2) tabiiy til va odatda 3) «sog'lom fikr» tushunchasi orqali ifodalanadigan ulkan axborot zaxirasi[17]. Ong rivojlanishining fangacha bo'lgan darajasida hissiy va aqliy tajriba chambarchas bog'liq bo'lib, odatda bir-birini to'ldirgan. Bu hol unga nihoyatda mustahkamlik va o'zi uchun yetarlilikning uyg'unligi sifatini beradi. Ayni vaqtda mazkur bilish (kognitiv) tizimlarini maxsus ko'rib chiqishga «chuqur kirib bormagan» holda gnoseologik jihatdan muhim bo'lgan quyidagi faktni ko'rsatishimiz mumkin. Bilish faoliyatining yuqoriroq va ixtisoslashganroq darajalari kundalik perseptiv tuzilmalari va tabiiy tilning faoliyat ko'rsatishini hamda o'zining sog'lom fikrning noaniq konseptual tuzilmalariga tayanishini bekor qilmaydi[1, 76-b].

Bu hol, albatta, ixtisoslashgan ilmiy kuzatish yoki eksperiment narsa va hodisalarni oddiy, fangacha bo'lgan idrok etishdan hech bir jihatdan farq qilmasligini bildirmaydi. Ilmiy kuzatish va eksperimentning mezonlari sifatida doimo normal inson normal sharoitda ashyolarning haqiqiy holatini idrok etishidan iborat fakt olinadi. Murakkab va muammoli perseptiv vaziyatlarda idrok etishning shakllanishi borasidagi ko'plab tajribalarning ko'rsatishicha, u sog'lom fikr tasavvurlari va normalari insoniyatning butun tarixi mobaynida amalga oshirib kelinayotgan son-sanoqsiz elementar induksiyalar va noaniq tanlov harakatlarining natijasidir.

Sog'lom fikr o'zgarmas va qotib qolgan emas, u uzoq tarixiy rivojlanish mahsuli bo'lib, ko'plab aqliy vositalashlarni o'z ichiga oladi. Ulardan ixtisoslashgan bilimlarning, jumladan u yoki bu davr madaniyatiga chuqur kirgan ilmiy nazariyalarning elementlari joy oladi. Turli fanlarning tushuncha va tasavvurlari kundalik tajribada o'z aksini topib o'zgarmay qolmaydi: ularning o'zlari dastlab nazariy tizimlar ichida ega bo'lgan mazmun va ahamiyatdan ayrilib, sog'lom fikr qismlariga aylanadi.

Ilmiy nazariyalarda bo'lgani kabi, kundalik tajribada ham tabiat, jamiyat va inson haqidagi bilim mavjud. Bu bilimdan insoniyat doimo foydalanadi. Busiz amaliy faoliyat ham, hayotda oddiygina yo'l topish ham mumkin emas. Kundalik bilimda voqelikning turli sohalari haqidagi «nazariyalarni» yoki, aniqroq aytadigan bo'lsak, «protonazariyalarni» tashkil qiluvchi o'zaro chambarchas bog'liq qoidalar tizimi mavjud deyish uchun asoslar bor[6].

Kundalik tajribaning ixtisoslashmagan va ideallashmagan tushunchalaridan fan doirasida ham foydalaniladi. Ko'proq faktlarga asoslanadigan fanlarda nazariy qoidalar, izohlar va bashoratlarni, nazariy tuzilmalarni insonni o'rab turgan ashyolar va vaziyatlar bilan qiyoslamay turib tekshirib bo'lmaydi. Ularning bir qismi tabiiy tilda tavsiflanadi. Biroq, yuqori darajada nazariylashgan fanlarda ham eksperimental vaziyatlarni tavsiflash kundalik tushunchalarga asoslanadi.

Shu sababli empirik sotsiologik tadqiqotlar amaliyotida ko'pincha empirik talqin etishni talab etadigan har qanday tushuncha, hatto kundalik tilimizdan olingan bo'lsa ham, nazariy tushunchalarga kiritiladi. Bu tushunchalarning nazariy tushunchalar sifatida talqin etilishini ularga mos keluvchi empirik ko'rsatkich va belgilarni topish jarayonini amalga oshirish uchun ba'zi hollarda nazariy tadqiqot o'tkazish talab etiladigan alohida tahliliy vazifa sifatida qaralishi bilan izohlash mumkin.

Biroq, turli ijtimoiy nazariyalarning shakllanish mantig'ini tahlil qilishda bilishning empirik va nazariy darajalari o'rtasida muayyan chegara o'rnatishga intilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ijtimoiy bilishda empirik va nazariy darajalar o'rtasida qat'iy chegara yo'qligi sababli, bizningcha, «empirik darajaga yaqinroq» yoki «nazariy darajaga yaqinroq» tushunchalardan foydalanish to'g'ri bo'ladi. Ikkinchi tushuncha esa u bilan qiyoslanadigan hamda yo uning turlari, yo ko'rsatkichlari sifatida baholanishi mumkin bo'lgan tushunchalarga nisbatan keng umumlashma va katta axborot hajmiga ega sifatida qaralganidagina o'z nomini oqlaydi[1].

Bilish darajalarini farqlashning ba'zi mezonlari, shuningdek ushbu darajalardagi farqlarni aniqlash usullari mavjudligiga qaramay (ular oxir-oqibatda ushbu darajalar o'rtasidagi mutlaq bo'lmagan va nisbat chegaralardir), o'zaro bog'liqlik va dialektik aloqadorlik umuman butun bilish jarayoni, xususan mazkur darajalar o'rtasidagi ajralmas jihatlaridir. Ilmiy bilishning amaliyot bilan bog'liqligi asosida empirik va nazariy darajalar bir butun bilish faoliyatining bir-birini taqozo etuvchi

shakllari sifatida dialektik birlikda baholanishi kerak, deb o‘ylaymiz. Empirik va nazariy bilim birligi va o‘zaro aloqadorligining asosi – amaliyot hisoblanadi. Shu bois ijtimoiy fanlarda real tadqiqot faoliyatiga murojaat etilishi empirik va nazariy darajalarni ajratishning ko‘p jihatdan shartli, nisbiy ekanligiga yana bir bor ishoniradi. Ijtimoiy bilimning yaxlit xususiyatga egaligi g‘oyasiga suyanib, biz empirik va nazariy jihatlarni bilimning har xil darajalari sifatida emas, balki ilmiy faoliyatning o‘ziga xos va bir-biriga kirib boradigan shakllari sifatida tavsiflashni to‘g‘ri deb bilamiz. Masalaga bunday yondashuv bilish sub’ektining u aks ettiradigan ob’ektiv voqelik bilan birligini ko‘rsatib, ilmiy bilishning «faol» tabiatiga ko‘proq mos keladi.

Biroq mezonlarning shartligi muhimroq tuyuladi, zero bu empirik va nazariy darajalarning o‘zaro munosabatini ilmiy o‘rganish ular o‘rtasida o‘zgaruvchan chegaralar mavjudligini ishonchli tarzda talqin etishga imkon beradi. Bir qator mualliflar empirik va nazariy darajalar o‘rtasidagi chegaraning tarixiy xususiyatini o‘rganish zarurligiga alohida e’tibor qaratadilar. U yoki bu ilmiy natijaning qanday kelib chiqqanligini bilmay turib, uning bilish faoliyatining qaysi darajasiga, ya’ni nazariy yoki empirik darajasiga mansubligi haqidagi masalani aniq hal qilib bo‘lmaydi [13, 488-b]. Ayni paytda, empirik va nazariy darajalar o‘rtasidagi tarixan xilma-xil munosabatlarni bilish ularni dialektik xususiyatga ega bo‘lgan munosabatlar nuqtai nazaridan qarab chiqishga imkon beradi.

**Xulosa.** Falsafaning empirik va nazariy darajalar aloqadorligining dialektik xususiyatini ochib berish hozirgi zamon metodologik refleksiya realliklarining xilma-xilligi bilan bevosita bog‘liq. Ushbu realliklarning birinchi guruhi empirik va nazariy bilim chegaralarining noaniqligini e’tirof etishga asoslanadi. Demak, bir qator hollarda empirik va nazariy darajalarni an’anaviy ravishda qarama-qarshi qo‘yish – ularning majburiylikini, chegaralari esa bir xilligini yo‘qotadi.

Refleksiya realliklarining ikkinchi guruhi empirik va nazariy bilish darajalarining natijalari bo‘lmish empirik va nazariy bilimlarning «empiriya – nazariya» munosabatiga tayanadigan hamda nazariy bilimni tushunish asosida namoyon bo‘ladigan istiqbollarni bilan bo‘ladigan xilma-xil aloqalari o‘rtasidagi nomuvofiqlikdan iborat. Axir, hozirgi mantiq va fan metodologiyasida nazariy bilimning o‘ziga xos mohiyatini empirik daraja bilan qiyoslab ta’riflash usuli ustunlik qilgani sababli, ilmiy bilimning nazariy rivojlanishi tajriba faktlaridan ularni oqilona (ratsional) izohlash va nazariy talqin etishga o‘tish sifatida tushuniladi. Bunda talqin etishning natijalari ularning empirik asoslaridan ajratilishi kerak.

O‘zining empirik asosidan ajratilgan nazariy bilimning umuman yo‘qligi o‘ziga xos jihat sifatida baholanishi uchun ancha uzoq vaqt kerak bo‘ladi, chunki sof nazariy komponent keng ma’noda mustaqil bo‘lib ajralish va alohida faoliyat ko‘rsatish imkoniga ega emas. Binobarin, qo‘yilgan vazifaga muvofiq bo‘lgan tadqiqot vositalari talab qilinadi.

Hozirgi zamonda mantiq va fan metodologiyasining sof nazariy va empirik materialni talqin etishni ajratib olishga urinishi hozircha ustunlik qilayotgan nazariy bilimni empirik bilimga nisbatan ta’riflash usulining bevosita oqibatidir. Ushbu nuqtai nazar tarafdorlariga nisbatan ilmiy bilishning nazariy taraqqiyotiga oid masalalarni muhokama qilishda sof nazariy bilimni «sof bo‘lmaganidan» ajratishga emas, balki nazariy umumlashmalarning eksperiment, empirik bilim bilan aloqalarini mustahkamlashga alohida urg‘u beradigan boshqa bir qarash qarama-qarshi turadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ключкина О. Б. Построение теории на основе качественных данных // Социол. исслед. – 2000.
2. Пуанкаре А. О науке. – М.: науки 1983.
3. Степин В.С. Теоретическое знание. 0– М., 2000.
4. Кун Т. Структура научных революций. – М., 2001; Американская социологическая мысль. – М.: МГУ, 1994; Риккерт Г. Науки о природе и науки культуре. – М.: Республика, 1998.
5. Девятко И.Ф. Модели объяснения и логика социологического исследования. – М.: 1996.
6. Алексеев П. В., Панин А. В. Теория познания и диалектика. – М.: Высшая школа, 1991.
7. Эйнштейн А. Собрание научных трудов. Т. 4. – М., 1967.
8. Луи де Броль. Революция в физике. (Новая физика и кванты). – М., 1968.

9. Зиёмухамедов Б. Комиллика элтувчи китоб. – Т.: Турон иқбол, 2006.
10. Штомпка П. Социология социальных изменений. – М., 1996.
11. Ефремкин М. И. Особенности описания социальных фактов//. Исторические записки. – Пенза, 1997.
12. Бабаев Б. Д. Диалектика эмпирического и теоретического в социальном познании. – Т.: Узбекистан, 1991.
13. Философия / Под ред. В. П. Кохановского. – Ростов-н/Д, 2000
14. Фалсафа. Энциклопедик луг‘ат. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2010.
15. Рузавин Г. И. Методология научного исследования. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 1999.
16. Давронов З. Илмий ижод методологияси. – Т.: Иқтисод-молия, 2006.
17. Новикова С.С. Введение в прикладную социологию. Анкетирование. – М., 2000.

# МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 1

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

ТОМ 6, НОМЕР 1

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

VOLUME 6, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000